



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 1 (03)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil***

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**1**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

MUNDARIJA

<b>Tursunov A.M.</b> O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
<b>Abdulazizov A.A.</b> Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
<b>Jurayev D.A.</b> Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar.....	15
<b>Suyarov Sh.S.</b> Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
<b>Кариева Л.С.</b> Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
<b>Axtamov A.U.</b> Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka ta’siri xususida.....	25
<b>Гафуров А.Б.</b> Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
<b>Абиткариев А.М.</b> Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
<b>Abdullayev D.G’.</b> Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
<b>Abdullayev M.G’.</b> Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
<b>Isakov A.Y.</b> Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
<b>Ashurova G.N.</b> Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
<b>Yo‘ldosheva M.F.</b> O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
<b>Қулматов А.А.</b> Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
<b>Babayev A.N.</b> Yoshlar bandligini ta’minlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
<b>Sharipov H.A.</b> Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
<b>Турдиева Я.</b> Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
<b>Vaxidov A.K.</b> Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
<b>Gaymatova D.G’.</b> Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
<b>Pardayev E.E.</b> Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
<b>Ibragimova S.A., Muradov Sh.D.</b> Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
<b>Адилов Б.Б.</b> Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
<b>Yoqubova Z.T.</b> Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashning konseptual asoslari.....	101
<b>Saidaxmedova N.I., Aripov A.S.</b> Oliy ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
<b>Abduvoyeva X.Sh.</b> O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga ta’sirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
<b>Умаров А.А.</b> Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибadorligini oshirish.....	116
<b>Shoraximova Z.N.</b> «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	120
<b>Умурзакова З.С.</b> Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш йўллари.....	126
<b>Karimov X.O.</b> Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

<b>Aхунов М.А.</b> Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	134
<b>Ахмаджонов С.С.</b> Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	138
<b>Abdullayeva Sh.А.</b> Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralarini boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	142
<b>Дусанов С.М.</b> Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	146
<b>Мамаражобов А.С.</b> Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	151
<b>Nigmatova D.Z., Amanov E.G’.</b> Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalar samaradorligiga ta’siri.....	157
<b>Ikromjonova M.U.</b> To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	160
<b>Madaminjonov A.O.</b> To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	164
<b>Jamoliddinova S.S.</b> Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	168
<b>Akbaraliyev A.E.</b> O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	173
<b>Эрматова С.И.</b> Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	178
<b>Maxsudov Sh.S.</b> To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	181
<b>Boyev X.I., Adilov B.B.</b> Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	186
<b>Raxmonova N.A.</b> Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	190
<b>Якубова Д.М.</b> Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	194
<b>Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y.</b> Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	198
<b>Matyoqubova D.O.</b> Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	202
<b>Rahmatullayeva F.</b> Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	206
<b>Mamajonov L.A.</b> Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	209
<b>Давруков Ф.У.</b> Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	213
<b>Убайдуллаева Н.Р.</b> Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	222
<b>Abdullayev A.A.</b> Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	227
<b>Alimov O.N.</b> O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	230
<b>Sultonov B.M.</b> Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	235
<b>Mamajonova N.A.</b> Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	239
<b>Sanaqulova A.</b> O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	243
<b>Nazarov N.N.</b> Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	247
<b>Toshpulatov A.M.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	251
<b>Sanaqulova A., Ochilova M.</b> Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	254
<b>Umarov I.Y.</b> Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	257

**Список использованной литературы:**

1. Ковалёв В.В. Финансовый учет и анализ: учебник для вузов. - 3-е изд., перераб. и доп. - Москва: Юрайт, 2021. - 552 с.
2. Ковалёв В.В. Анализ финансового состояния предприятия: учебное пособие. - Москва: Проспект, 2020. - 384 с.
3. Кондраков Н.П. Бухгалтерский учет: учебное пособие. - 7-е изд., перераб. и доп. - Москва: ИНФРА-М, 2020. - 681 с.
4. Бланк И.А. Финансовый менеджмент: учебный курс. - Киев: Ника-Центр, 2019. - 624 с.
5. Хамидов Б.А. Бухгалтерский учет и финансовая отчетность в Республике Узбекистан. - Ташкент: Iqtisod-Moliya, 2020. - 384 с.
6. Турсунов А.А. Совершенствование бухгалтерского учета обязательств в условиях цифровой экономики: монография. - Ташкент: Экономика, 2021. - 296 с.
7. Гулямов Ш.Х. Финансовый контроль и учет в хозяйствующих субъектах. - Ташкент: Fan va texnologiya, 2019. - 312 с.
8. Schmalenbach H. Dynamic Accounting. - Berlin: Springer, 2017. - 402 p.
9. Richard J. Accounting Theory: Concepts and Methods. - Paris: Economica, 2018. - 356 p.

**UDK: 005.5:677**

**TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIKNI  
MONITORING QILISHNING AHAMIYATI.**

**ВАЖНОСТЬ МОНИТОРИНГА ЭФФЕКТИВНОСТИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ  
ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.**

**THE IMPORTANCE OF PERFORMANCE MONITORING IN TEXTILE INDUSTRY  
ENTERPRISES**

**Maxsudov Sherzod Solijonovich** Farg‘ona davlat universiteti  
Buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil kafedrasida dotsenti (PhD)

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada, faoliyat samaradorligini boshqarish jarayoni, to‘qimachilik korxonalarida faoliyat samadorligini boshqarish, klaster modelini qo‘llash, korxonalarini barqaror rivojlanishi, tayyor ipak gazlama, tirikotaj buyumlari, ip yigirish liniyalarini raqamlashtirish, monitoringni olib borish maqsadi, monitoringni me‘yori, monitoringni tashkil etilishi, ma‘lumotlarni to‘plash va qayta ishlash, monitoring natijalari, to‘qimachilik korxonalarida monitoring tizimini, korxonalarda mehnat salohiyati, to‘qimachilik korxonalarida asosiy va aylanma mablag‘lari ilmiy va nazariy tomondan yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** to‘qimachilik sanoati, yuqori eksport ulushi, texnologik yangilanishini jadallashtirish, klaster modeli, investitsion muhit, Paxta tolasi, korxonalar ichki reglamentlari, blok monitoring jarayoni, zaxiralarni va logistika tizimi, Monitoring natijalari.

В данной статье с научной и теоретической точки зрения рассматриваются процесс управления эффективностью, управление эффективностью на текстильных предприятиях, использование кластерной модели, устойчивое развитие предприятий, цифровизация готовых шелковых тканей, прядильных линий, цель мониторинга, критерии мониторинга, организация мониторинга, сбор и обработка данных, результаты мониторинга, система мониторинга на текстильных предприятиях, трудовой потенциал предприятий, основной и оборотный капитал на текстильных предприятиях.

**Ключевые слова:** текстильная промышленность, высокая доля экспорта, ускорение технологических инноваций, кластерная модель, инвестиционный климат, паханое волокно, внутренние правила, процессы блокового мониторинга, предприятия и логистическая система, компания по мониторингу.

This article examines the performance management process, performance management in textile enterprises, the use of a cluster model, sustainable enterprise development, and digitalization of finished silk fabrics from a scientific and theoretical perspective, straight lines, solid, Diptych criteria, Diptych organization, data collection and processing, results, Diptych system in textile enterprises, labor potential of enterprises, fixed and working capital in textile enterprises.

**Key words:** textile industry, high export share, acceleration of technological innovation, cluster model, investment climate, butterflyed fiber, internal regulations, block monitoring processes, enterprises and logistics system, monitoring company.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida to‘qimachilik sanoati mamlakat sanoat tarkibida eng muhim o‘rin egallagan tarmoqlardan biri hisoblanadi. To‘qimachilik soha nafaqat yirik ishlab chiqarish salohiyatiga ega, balki yuqori eksport ulushi, aholi bandligiga sezilarli ta‘sir hamda mamlakatning xalqaro iqtisodiy maydondagi raqobatbardoshligini sezilarli ta‘siri hamda mamlakatning xalqaro iqtisodiy maydondagi raqobatbardoshligini oshirishdagi roli bilan ajralib turadi. Global raqobatning ta‘minlash, ishlab chiqarish jarayonlarini ilmiy asosda boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish va bozor talablariga moslashuvchan tizimni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati so‘nggi yillarda jadal o‘shirish bosqichini boshdan kechirmoqda. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnologik yangilanishini jadallashtirish, klaster tizimi orqali to‘liq qiymat zanjirini shakllantirish, mahsulot eksportini kengaytirish kabi omillar korxonalar faoliyatini samarali boshqarishni talab qilmoqda.

Korxonalar samaradorligini belgilovchi omillar ichida menejment tizimining takomillashganligi, ishlab chiqarish jarayonlarining optimallashtirishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish sifati boshqaruvi standartlariga rioya etish, moliyaviy ko‘rsatkichlarning barqarorligi va mehnat unumdorligining oshishi muhim o‘rin turadi.

Faoliyat samaradorligini boshqarish jarayoni — bu korxonaning mavjud resurslarini to‘g‘ri yo‘naltirish, xarajatlarni minimallashtirish, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini muvofiqlashtirish hamda foyda olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmlarini majmuasidir. Bunday mexanizmlar zamonaviy iqtisodiy muhitda korxonalar oldida turgan asosiy vazifalardan biri-raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarish va barqaror o‘shirishni ta‘minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, to‘qimachilik sohasining texnologik xususiyatlari mavjud bozor talabining o‘zgaruvchanligi va xomashyo narxlarining tebranishi korxonalar tomonidan ilmiy asoslangan boshqaruv strategiyasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

To‘qimachilik korxonalarida faoliyat samaradorligini boshqarish jarayonining nazariy asoslari, uni shakllantiruvchi omillar, boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy yondashuvlari hamda amaliy natijalarga ta‘sir o‘rganiladi. Tadqiqot dolzarbligi shundaki, samarali boshqaruv tamoyillarini chuqur tahlil qilish va ularni to‘qimachilik korxonalarida qo‘llash orqali korxonalar faoliyatini optimallashtirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ilmiy-amaliy yo‘nalishlarini asoslab berish imkoniyati yaratiladi.

To‘qimachilik sanoati korxonalarini boshqarish masalasi bo‘yicha Xorijiy olimlarning ilmiy yondashuvlari Maykl Porter raqobatdoshlikning asosi-tarmoq ichidagi klaster tizimi orqali ishlab chiqarishni integratsiya qilish. To‘qimachilik sanoatini boshqarishda klaster modelini qo‘llash, korxonalarini kooperatsiya asosida birlashtirish va innovatsion muhit yaratishni ilmiy jihatdan asoslab bergan. Piter Druker samarali boshqaruv tizimi-inson kapitali, innovatsiyalar va bozor ehtiyojlariga moslashuvga tayanadi. Korxonalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda strategik fikrlash va innovatsion menejmentning rolini belgilagan. Sanoat korxonalarini, xususan to‘qimachilik sohasini boshqarishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlarga qaramay, to‘qimachilik korxonalariga moslashtirilgan

## “YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil*

zamonaviy boshqaruv yondashuvlari va o‘ziga xos operatsion mexanizmlari hozirgi akademik adabiyotlarda yetarlicha o‘rganilmagan. O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatining bugungi holati va rivojlanish salohiyatini tahlil qilish uchun amaliy tadqiqot usullaridan foydalanadi. Amaldagi asosiy uslubiy yondashuvlar qatoriga tizimlarni tahlil qilish, maqsadga yo‘naltirilgan rejalashtirish va vaziyatni tahlil qilish vositasi sifatida qo‘llaniladi.

To‘qimachilik sanoati korxonalarini barqaror rivojlanishi va samaradorligini oshirish investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish bilan bog‘liq. Investitsiyalar iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy samaradorlikni oshiruvchi strategik vosita sifatida e‘tirof etiladi. Davlat tomonidan yaratiladigan qulay investitsion muhit va huquqiy kafolatlar korxonalarining investitsion faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, investitsiyalarning samarali yo‘naltirilishi to‘qimachilik sanoat korxonalarining diversifikatsiyasi, raqobatbardoshligini mustaxkamlash va milliy iqtisodiyotning barqaror o‘shishini ta‘minlaydigan muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.


1-jadval

### O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlarining yillik o‘rtacha foydalanishi[3]

Tarmoq turi	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Devorbop materiallar	73.97	52.2	60.6	77.7	74.3	75.1
Xom ipak iplari	58.4	55.8	55.6	93.0	95.1	96.1
Tayyor ipak gazlama	77.2	52.8	83.7	100	100	100
Tayyor ip gazlama	75.3	79.1	84.0	62.8	74.9	76.2
Paypoq buyumlari	81.2	79.6	82.4	75.4	91.3	92.3
Tirikotaj buyumlari	78.7	66.2	75.8	84.4	86.9	87.1
Gilam va gilam buyumlari	87.4	88.9	88.9	92.7	91.0	91.8
Paxta tolasi	97.2	90.0	91.0	82.4	85.5	86.1

Jadvalda keltirilgan 2019-2024 yillar davrida O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatidagi tarmoqlar quvvatlaridan foydalanish dinamikasini kompleks aks ettiradi. Bu davrda tarmoq rivojiga quyidagi omillar kuchli ta‘sir ko‘rsatgan: 2020 yil pandemiya shoklari global ta‘minot zanjirining buzilishi, 2021-2024 yillarda to‘qimachilik sanoati davlatning amalga oshirgan chora tadbirlari natijasida klaster tizimini joriy etilishi, Xitoy, Turkiya, Qozog‘iston, Rossiya va Yevropa bozorlariga kirish imkoniyatlarining kengayishi, yangi to‘quv va ip yigirish liniyalarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish darajasini ortishi natijasida tarmoqda ishlab chiqarish faollik sezilarli oshgan. Tarmoq kesimida tahlil qilinganda devorbop materiallarning 2019-2020 yillarda ishlab chiqarish quvvatlari 73.97 % dan 52.2% gacha tushgan. Karantin sabab talab pasaygan. 2021-2022 yillarda 77.7% gacha tiklanish, qurilish va ta‘mirlash bozorining qayta faollashuvi, 2024 yil 75.1% barqaror, lekin to‘liq potensialga chiqmagan. Rivojlanish potentsiali yuqori, lekin mahsulot assortimentining cheklanganligi va ichki bozorga bog‘liqlik quvvatlarni to‘liq ishlatishga imkoniyat bermayapti. Innovatsion devorbop materiallar: ekologik, namlikka chidamli, dizaynli materiallarni joriy etish zarur. Xom ipak iplari 2019-2021 yillar 55%dan 58% o‘sgan. Lekin foydalanish darajasi past. Xomashyo yetarlicha qayta ishlanmagan. 2022-2024 yillarda 93%dan 96%gacha o‘sgan. Bu esa sektorda uzluksiz o‘shish va maksimal foydalanishdan dalolat beradi. Ipakchilik klasterlari samarasi zamonaviy ip yigirish quvvatlarining joriy etilishi va eksport talabining o‘shishi sektorni O‘zbekiston uchun strategik rivojlanish nuqtasiga aylantirdi. Tayyor ipak gazlama 2020 yilda 52.8 % foizni tashkil etilishi pandemiya o‘z ta‘sirini ko‘rsatish natijasidir. 2022 -2024 yillar 100 % to‘liq quvvatda ishlashi Ipak mahsulotlariga tashqi bozorda yuqori qo‘shilgan qiymat berilishi tarmoqni maksimal darajada ishlatishga sabab bo‘ladi. Tayyor ip gazlama 2019-2021 yillarda 75-84 % o‘sgan. Buni barqaror o‘shish-2022 yil 62,8% foizni tashkil etib, eksport tartiblari va xomashyo narxining oshishining ta‘siri 2024 yil 76,2% ni tiklanish dinamika hisoblanadi. Tarmoq ichki bozor talabiga sezgir. Xomashyo eksporti va ichki qayta ishlash o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhim hisoblanadi. Paypoq ishlab chiqarish 2019-2024 yillarda 79-92 % o‘sgan, bu esa yuqori barqarorlik va eng tez o‘suvi segmentlardan biri hisoblanadi. Trikotaj buyumlar 2020 yilda 66.2% bo‘lib, keskin pasayish yuzaga

kelgan. 2024 yilda esa 87.1% bo‘lib barqaror o‘shishga erishilgan. Trikotaj bozorida yuqori raqobat va qulay eksport talablari mavjud bo‘lib, uzluksiz yangilanish va dizayn diversifikatsiya quvvatlaridan to‘liq foydalanish imkonini oshirmoqda. Gilam va gilam buyumlari 2019-2024 yillarda 87%dan 92 %ga o‘shib, doimiy yuqori darajada bo‘lgan. Gilamchilik tarmog‘i O‘zbekistonda an’anaviy rivojlanish va eksport yo‘naltirilgan Yevropa va Turkiyadagi bozorlarga chiqish quvvatlardan foydalanishni doimiy yuqori darajasi ushlab turibdi. Paxta tolasi 2019 yilda 90 % ini, 2021 yillarda 97 % yuqori daraja, qayta ishlash tarmoqlariga yo‘naltirilgan strategik siyosat natijasi 2022 yilda 82%ini, 2024 yilda 86.1% tashkil etgan. Bu esa paxta tolasini eksportdan ko‘ra qayta ishlashni kengaytirish siyosatining amaliy natijasidir. To‘qimachilik sanoatida 2021-2024 yillarda tizimli tiklanish va rivojlanish tendensiyasi ustun. Ipakchilik, trikotaj, gilamchilik va paypoqchalik yuqori quvvat bilan ishlovchi tarmoqlar sifatida shakllandi. 2024 yilda tarmoqlarning aksariyati 80-100% diapazonida ishlagani sanoatning texnologik modernizatsiya darajasi yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Keyingi yillarda barqaror o‘shish klasterlar tizimining samaradorligini to‘liq namoyon qildi. To‘qimachilik sanoati eksport-orientirlangan yuqori qo‘shilgan qiymatli segmentlarga hisoblanadi.



**1-rasm. To‘qimachilik korxonalarida monitoringning tashkil yetilishi va maqsadlari.**

Monitoringni tashkil etilishi va uning asosiy maqsadlari ko‘ra, monitoring jarayoni 3 asosiy blokdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda uning maqsad va vazifalari aniq belgilab olinadi. Monitoringning asosiy maqsadi-to‘qimachilik korxonalarini faoliyatini qamrab olgan ko‘rsatkichlar asosida: moliyaviy barqarorlikni baholash

ichki jarayonlar samaradorligini nazorat qilish bozor bilan aloqador ko‘rsatkichlarni baholash; kadrlar salohiyatidan foydalanish darajasini tahlil qilish maqsadlar korxonaning raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi. Monitoringni me’yoriy-huquqiy jihatdan tartibga solish. Monitoring jarayonining huquqiy asoslari muhim element sifatida qayd etilgan bo‘lib, bu, Davlat me’yoriy hujjatlari, korxonalar ichki reglamentlari, soha bo‘yicha standartlarga rioya qilish kabi mexanizmlarni talab qiladi. Ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash jarayoni. Ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash

jarayoni ikkinchi blok monitoring jarayonining texnik asosini tashkil etadi. Unga ko‘ra: Balanslashtirilgan ko‘rsatgichlar tizimi (KPI) qo‘llaniladi. Ikkinchi blok monitoring jarayonining texnik asosini tashkil etadi. Unga ko‘ra: Balanslashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimi (KPI) qo‘llaniladi. To‘qimachilik korxonalaridan to‘qimachilik korxonalarida ishlatiladigan asosiy KPllar to‘rt yo‘nalishda jamlangan: Moliyaviy holat ko‘rsatgichlari: rentabellik, likvidlik, aktivlar aylanuvchanligi, mijozlar bo‘limi ko‘rsatgichlari: mijozlar qoniqish darajasi, bozor ulushi, mijozlarni jalb qilish tezligi

Ichki biznes-jarayonlar ko‘rsatgichlari: ishlab chiqarish quvvatidan samaradorligi, ish jarayonlarining avtomatlashtirilganlik darajasi. Kadrlar holati va rivojlanish salohiyati: malaka oshirish dasturlari, xodimlar almashinuv darajasi, motivatsiya tizimining samaradorligi, ma‘lumot ko‘rsatgichlari korxonalar faoliyatining real holatini xolis baholash imkonini belgilab beradi.

Ma‘lumotlarni qayta ishlash; “Olingan ma‘lumotlarni tahlil qilish” alohida band sifatida ko‘rsatilgan bo‘lib, bu bosqichda: statistik tahlil, dinamik taqqoslash, diagnostik baholash kabi usullar qo‘llaniladi. Monitoring natijalari asosida takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish. Monitoringning uchinchi blogida asosiy e‘tibor topilgan tafovutlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

Tafovutlarni aniqlash. Reja va amaldagi ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. KPllar bo‘yicha past baholangan jarayonlar aniqlanadi. Ichki va tashqi omillarning ta‘siri baholanadi.

Takomillashtirish takliflari. To‘qimachilik korxonalarida optimal takliflar quyidagi yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin: ishlab chiqarish texnologiyalarini yangilash, raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish, xodimlar malakasini oshirish, moliyaviy risklarni kamaytirish tizimini joriy etish. To‘qimachilik korxonalarida monitoring tizimini samarali tashkil etish korxonaning barqaror faoliyati va strategik rivojlanishini ta‘minlaydi. Balanslashtirilgan ko‘rsatgichlar tizimi (KPI) orqali moliyaviy holat, bozor ko‘rsatgichlari, ichki jarayonlar va kadrlar salohiyatini kompleks baholash boshqaruv qarorlarining sifatini oshiradi. Monitoring natijalari asosida ishlab chiqarilgan takliflar esa korxonaning raqobatdoshligini kuchaytirish, xarajatlarni kamaytirish va innovatsion rivojlanishni tezlashtirishga xizmat qiladi.

To‘qimachilik sanoati korxonalarida jalb qilish mehnat unumdorligini oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Korxonalarda mehnat salohiyati va kapital mablag‘lardan samarali foydalanish o‘zaro bog‘liq bo‘lib, investitsiyalar mehnat unumdorligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Oliy malakali xodimlar soni va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bilan birga investitsiyalarni sifatli yo‘naltirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirish orqali amalga oshirilishi mumkin. To‘qimachilik korxonalarida asosiy va aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, mehnat unumdorligini yaxshilash va raqobatdoshlikni mustahkamlash muhim rol o‘ynaydi. Investitsiyalar asosiy vositalarni modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xodimlarni malakasini oshirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Aylanma mablag‘larni optimal boshqarish, zaxiralarni va logistika tizimini yaxshilash orqali korxonalarda resurslardan unumli foydalanish ta‘minlanadi. Shu bilan birga, eksport salohiyatini kengaytirish va investitsiyaviy diversifikatsiyani oshirish korxonaning barqaror rivojlanishi va bozor raqobatbardoshligini ta‘minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.01.2025 yildagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6-sonli Farmoni.
2. Итигина А.А. Организационно-экономический механизм формирования интегрированных корпоративных образований в текстильной промышленности. Дисс. на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – М.: 2014. – С. 25.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.
4. Maxsudov Sh.S. To‘qimachilik sanoati korxonalarida investitsiya jarayonlarini boshqarish “Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti” №9. 2025 –Toshkent, b.209-212.